

“Kirpijon” tabriknomasi



Kirpi (tipratikan) – o‘rmonning haqiqiy kichik xo‘jayini! U barglar orasiga yashirinadi, qishga oziqa to‘playdi. Igna kabi o‘tkir tikanlari unga betakror joziba, ko‘rk baxsh etadi.



Rangli qog‘oz va kartondan **Kirpijon** tabriknomasini tayyorlang. Bu do‘stingiz uchun sovg‘a bo‘la oladi. Qo‘ziqorin ichiga mehrli tilaklaringizni yozing.

Sizga kerak bo‘ladi:



- ko‘k rangli karton;
- rangli qog‘oz;
- qaychi va yelim;
- qalam;
- dumaloq shakldagi ikkita predmet (asosini yasash uchun).

Ish rejasi:

1. **Asosni tayyorlab oling.** Har qanday yumaloq shaklli predmetdan trafaret o‘rnida foydalaning va kirpining tikanlarini chizing.
2. **Ikkinchi yarmini tayyorlaymiz.** Ochroq rangdagi qog‘ozdan sal kichikroq aylana shakl yasang va quloqlarini chizing.
3. **Kirpichaning tumshuqchasini yasaymiz.** Tikanlarini har xil rangli aylana shakllar bilan bezang.
4. **Qo‘ziqorincha yasaymiz.** Qo‘ziqorincha poyasiga ikkiga ochiladigan qalpoqchalarni yopishtiring.
5. **Surpriz.** Qo‘ziqorincha ichiga tilaklaringizni yozib, uni tipratikanning oyoqlariga mahkamlang.

